

## O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI

**Raximova Zulfiya Xashimjanovna**

**Andijon davlat pedagogika instituti Ona tili kafedrası o'qituvchisi**

**To'xtamurodova Ominaxon Botirjon qizi**

**To'xtamurodova Oydiyoy Botirjon qizi**

**Andijon davlat pedagogika instituti**

**Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari**

**Email: [oydiyoytoxtamurodova@gmail.com](mailto:oydiyoytoxtamurodova@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20068165>**

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida nutq madaniyati va barcha fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalari tahlil qilingan. Maktab tizimidagi har bir fan o'quvchining nutqiy tarbiyasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy-pedagogik jihatdan yoritib berilgan. O'qituvchi mahoratida kommunikativ qobiliyatning o'rni, xususan, nutqning jarangdorligi, aniqligi hamda dialektizmlardan xoli bo'lishi ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy mezon sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, nutq madaniyati nafaqat pedagogik faoliyatda, balki har qanday kasb egasi uchun muvaffaqiyat garovi bo'lgan muhim professional qurol ekanligi asoslab berilgan. Maqolada o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan zamonaviy talablar va uning shaxsiy imidjini shakllantirishdagi ahamiyati batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq madaniyati, pedagogik mahorat, kommunikativ qobiliyat, adabiy til me'yorlari, fanlararo bog'liqlik, nutqiy tarbiya, o'qituvchi imidji, nutq texnikasi, professional kompetentlik, ta'lim samaradorligi.

### **Аннотация:**

В данной статье проанализированы вопросы неразрывной связи культуры речи и всех дисциплин в образовательном процессе. Научно-педагогически освещается, как каждый предмет в школьной системе прямо и косвенно влияет на речевое воспитание школьника. Роль коммуникативных навыков в педагогическом мастерстве, в частности, выразительность, ясность и отсутствие диалектизмов в речи, обозначена как основной критерий повышения эффективности образования. Также обосновывается, что культура речи является важным профессиональным инструментом, залогом успеха не только в педагогической деятельности, но и для любого профессионала. В статье подробно рассматриваются современные требования к речи учителя и ее значение в формировании его личного имиджа.

**Ключевые слова:** культура речи, педагогическое мастерство, коммуникативные навыки, нормы литературного языка, междисциплинарные связи, речевое воспитание, имидж учителя, техника речи, профессиональная компетентность, эффективность образования.

### **Annotation:**

This article analyzes the issues of the culture of speech and the inextricable connection between all disciplines in the educational process. It is scientifically-pedagogically illuminated that each subject in the school system has a direct and indirect effect on the speech education of the student. The role of communicative skills in teacher skills, in particular the sonority, clarity, and freedom from dialectisms of speech, is highlighted as a key criterion for improving the effectiveness of education. It is also substantiated that the culture of speech is an important

professional weapon that is a guarantee of success not only in pedagogical activity, but also for any professional. The article details the modern requirements for the teacher's speech and its importance in the formation of his personal image.

**Keywords:** speech culture, pedagogical skills, communicative skills, literary language standards, interdisciplinary connections, speech education, teacher image, speech techniques, professional competence, educational effectiveness.

Hozirgi kunda jamiyatimizning madaniy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda nutq madaniyatining o'rni beqiyosdir. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javob berar ekan, jamiyatimizning mohiyati xususida shunday degan edi: "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor beradi".<sup>1</sup> Darhaqiqat, ana shu ma'naviy va axloqiy qadriyatlar inson tafakkuri hamda nutqiy madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat madaniyatini nutq madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, mutaxassis kadrlar uchun o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olish qobiliyati davr talabiga aylandi. "O'z fikrini mutlaqo mustaqil. Ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin".<sup>2</sup> Umuman olganda, nutq madaniyati — bu shunchaki so'zlashuv emas, balki til normalarini mukammal egallamoqdir. Bu tushuncha talaffuz, urg'u, so'z ishlatish va gap tuzish qonunlarini yaxshi bilishni, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos hamda maqsadga muvofiq foydalana olishni nazarda tutadi. Nutq madaniyati — ifodali o'qish va so'zlay olish san'atini yuksak darajada egallash demakdir.

Yer yuzida turfa xil kasblar, bir-biridan farqli hunarlar mavjud. Ularning har birida o'ziga xos mehnat qurollaridan foydalaniladi. Masalan: dehqonlarning asosiy ish asbobi — ketmon. Duradgorlarniki — tesha (arra, randa), jarrohlarniki — tig', tikuvchilarniki esa ignadir. Dehqon o'z ketmoni yordamida unumsiz yerda ham betakror bog' bunyod etadi, go'zallik yaratadi. Biroq tajriba va mahorati yetarli bo'lmasa, yerning umrini zoye ketkazadi. Ketmon o'tkir bo'lmasa yoki dehqonning o'zi ketmon chopish sirlarini o'zlashtirmagan bo'lsa, oltin tuproq ham unumsiz qolib, xomtama dehqonning ahvoli ayanchli ko'rinishga keladi. Shunday faoliyat turlari borki, ularning tayanch quroli tildir. Bunday kasblarning boshida esa o'qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, muallim tildan oqilona foydalanish mahoratini egallamagan bo'lsa, demak, u haqiqiy nutq madaniyatini o'zlashtirmagan hisoblanadi. Agar dars jarayonidagi nutq mazmunsiz va rangsiz bo'lsa, pedagogning bilimi qanchalik teran va mukammal bo'lmasin, 45 daqiqalik dars vaqti ham o'ziga, ham o'quvchining sho'rlik boshiga og'ir bir yuk bo'lib tushadi.

O'qituvchi o'z nutqidan keng foydalanishi kerak. O'quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozini kuchini, yoqimlilikini bilishi zarur.<sup>3</sup>

Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematik o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birdek zaruriy fazilatdir. Nutqiy

<sup>1</sup>Karimov. I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.

<sup>2</sup>Barkamol avlod orzusi. T., "Sharq", 1999.

<sup>3</sup> Qudratov. T. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 1993.

madaniyat haqida gap ketar ekan nutqning madaniyligi demakki ta'sir doirasi quvvatini ta'sir etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu sifatlarning barchasini o'zida mujassam etgan nutq madaniy hisoblanadi. Nutq madaniyatidagi asosiy masala tildan maqsadga muvofiq foydalanishdir. Demak tilni qo'llashning real ijtimoiy jarayonlarini tahlil qilish bu sohaning muhim yo'nalishlaridan biridir.<sup>4</sup>

O'qituvchi nutqi adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilishda o'quvchiga namuna bo'la olishi lozim. Adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi o'zi va o'quvchilari nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamom qutilish oson kechmaydi. Buning oqibatida aytaylik buxorolik o – tovushini faqat til oldi tarzida, xorazmlilik a tovushini asosan a tarzida yoki unga yaqin tarzida talaffuz qilishi, toshkentlik oshni – oshshi , yuzni-yuzzi, qorni-qorri tarzida aytilishi kabi ko'plab xatolar kelib chiqaveradi. Ba'zan boshqa tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffuz tamoyiliga ko'ra moslab aytish nuqsoni ko'zga tashlanadi. Yanvar-yinvar, Yaponiya-yiponiya, dekan-de'kan, fakultet-fakultet. Yozma nutqni aynan harflab o'qish ham adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishiga olib keladi. Masalan; o'qidingiz so'z shaklini yozganida 9 ta emas 8 ta tovush tarzida talaffuz qilinishi ya'ni n g ikki tovush emas balki bir tovush ekanligi bajardin-gizmi? o'rtog'in-gizga, berdin-gizmi? kabi xatolarga o'qituvchining o'zi ham yo'l qo'yilishi mumkin.

O'qituvchi nutqining asosiy xususiyatlari:

1. Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'riligi-uning adabiy til me'yorlariga mosligidir. Bunda quyidagilar asosiy o'rin tutadi:

-Talaffuz (orfofonetik) me'yorlar: Unli va undoshlar, so'z tarkibidagi turli qo'shimchalar, ism-familiyalar hamda birikmalarning to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlaydi.

-Morfologik me'yorlar: Adabiy tilning shevalardan farqlanuvchi jihati bo'lib, so'zlarning kelishiklar bilan turlanishi, fe'llarning tuslanishi va miqdor ifodalash qonuniyatlarini belgilaydi.

-Imloviy (orfografik) me'yorlar: Maxsus ishlab chiqilgan va barcha uchun majburiy bo'lgan yozuv qoidalaridir. Ular adabiy tilning yozma shakli takomillashuvida muhim omil hisoblanadi.

-Lug'aviy (leksik) me'yorlar: Tildagi barcha so'zlar ham adabiy tilda qo'llanilavermaydi. Bu me'yor adabiy tilni sheva va jonli so'zlashuv tilidan so'z boyligining tanlanishi, ma'nosi va qo'llanilish xarakteriga ko'ra ajratib turadi.

2. Nutqning aniqligi. O'qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika markaziy o'rinni egallaydi. Ular o'quvchi dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy bilim manbaidir. O'zbek tilshunosligi boy terminologik tizimga ega bo'lib, ularning bir qismi milliy asosda yaratilgan bo'lsa, qolgan qismi xalqaro aloqalar natijasida boshqa tillardan o'zlashtirilgan yoki kalkalash (nusxa olish) yo'li bilan qabul qilingan. Aniqlik nutqning eng muhim sifatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada buyuk mutafakkirlar shunday deganlar:

Aristotel: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u o'z maqsadiga erishmaydi."

Kaykovus: "Ey, farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so'zlaganda ma'noli gapir, notiqlikning alomatidir."

<sup>4</sup> Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari Toshkent. "Sharq" 1999 256 b

3. Nutqning mantiqiyliigi. Mantiqiy nutq deb yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqqa aytiladi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqdir. Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun noto'g'ri tanlangan lugaviy birlik ham mantiqiylikni buzadi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan, umuman anglashmasligiga olib kelishi mumkin. Nutqning mantiqiy buzilishi, eng avvalo, so'zlovchi va yozuvchining tafakkur uquvi, qobiliyati bilan bog'liq. Shuning uchun mantiqiylik faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki tafakkur hodisasi ham sanaladi. Bunda mavzu bo'yicha mavjud bilim asosida mulohaza yurgizish diqqatga sazovordir. So'zlarning o'zi ifodalanayotgan narsa-hodisalarga mos ravishda fikrning aniq ifodalanishi narsa mantiqiyliigi bo'lsa, so'z birikmalari, gaplar, hatto butun- butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo'ysundirilishi tushuncha mantiqiyliigidir.

4. Nutqning sofligi. G'ayri adabiy til unsurlaridan holi bolgan nutq sof nutq deyiladi. Nutqning sofligiga quyidagilar putur yetkazadi:

- a) dialektalizmlar;
- b) g'ayri tildan olingan so'zlar;
- c) jargon va argolar;
- d) vulgarizmlar;
- e) parazit so'zlar.

5. Nutqning ta'sirchanliigi. Tinglovchi va o'quvchi ruhida o'zgarish, hayajon yasovchi nutq ta'sirchan nutq deyiladi. Bunday nutq oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- a) tinglovchi e'tiborini tortish;
- b) tinglovchi qiziqishini oshirish;
- c) nutq dalil, isbot misollarning yetarli bo'lishini ta'minlash;
- d) fikrni bayon etishda qiziqarli shakllardan foydalanish;
- e) so'zlashda tabiiylikka erishish.<sup>5</sup>

O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak. O'qituvchi nutqi ikkinchidan o'quvchining samarali o'quv faoliyatini nutqi avvalo darsda samarali o'quv eshituvchini ta'minlashi kerak. O'quvchi o'qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi. Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. O'quv - bilim jarayonining samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. O'qituvchi ko'pincha «jim o'tir», «o'tir», «tugat», «yop» kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatib o'quvchining javobini bo'ladi. «Har doimgidek hech narsa bilmaysan», «sen buni qayerdan ham tushunarding» kabi gaplarni aytadiki, bular o'qituvchi o'quvchi munosabatini buzilishiga, aqliy faollik pasayishiga, nopedagogik vaziyatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning – o'qituvchi o'rtasidagi mahsuldor o'zaro munosabatni ta'minlashdan iborat. Nutq o'quvchi – o'qituvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi,

<sup>5</sup> Qo'ng'urov. R. va b. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. T., “O'qituvchi”, 1992.

xohishini qanday bayon qiladi; nutq impotensiyasi, yuz ifodasi, qarashi, ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada katta bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo'rquvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi sotsial xarakterlariga ham bog'liq bo'ladi. Og'zaki nutqning yana bir xususiyati uning improvizatsiya xarakterida ekanligidir. Tajribali o'qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglay turib, so'z va ifodalar birdan tutilayotganligini ko'radi. Shunday holat vujudga keladiki, go'yoki u o'qituvchi bu haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.<sup>6</sup>

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, har tomonlama mukammal shakllangan va zamon talablariga javob beradigan o'qituvchi qiyofasini yaratishda uning umumiy nutqiy madaniyati eng muhim va ajralmas poydevor (tamal toshi) bo'lib xizmat qiladi. Zero, o'qituvchining jonli nutqi, undagi barcha unsurlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmalari hamda ushbu malakalarning yaxlit majmuasi uning professional nutq texnikasini belgilaydi. O'z kasbiga chin dildan sadoqatli bo'lgan pedagog o'quvchilari nigohida nafaqat bilim beruvchi, balki har jihatdan qusursiz, yuksak intellektual salohiyatga ega va qadrli ustoz sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yuksak maqomni saqlab qolish va doimiy ravishda rivojlantirib borish bevosita har bir ustozning o'z ustida ishlashiga, bilim va ko'nikmalarini muttasil boyitib borishiga bog'liqdir. Zamonaviy o'qituvchi faqat dars berish bilan cheklanib qolmay, balki sohadagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lishi, ta'limdagi innovatsiyalarga ochiq va ijobiy munosabatda bo'lishi hamda o'z faoliyatida novatorlik ruhini aks ettirishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilan ishlashda ustoz nutqining ahamiyati beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda pedagog nutqining ravonligi, jarangdorligi hamda har xil salbiy va g'arazli vositalardan xoli ekanligi butun tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydi va bolalarga ijobiy ma'naviy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining ovoz ohangi, talaffuz madaniyati, diksiyasi va umumiy ma'nodagi tirik nutqi o'quvchilar uchun har doim o'ziga xos etalon — ideal namuna vazifasini o'taydi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.
2. Karimov. I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.
3. Qudratov. T. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 1993.
4. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari Toshkent. “Sharq” 1999 256 b
5. Ona tili- davlat tili. Toshkent “Adolat” 2004 80 b
6. Qo'ng'urov. R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyoti asoslari. T., “O'qituvchi”, 1992.
7. Begmatov. E. A. Notiqning nodir boyligi. T., “O'zbekiston”, 1980.
8. Mahmudov. N. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

<sup>6</sup> Begmatov. E. A. Notiqning nodir boyligi. T., “O'zbekiston”, 1980.